

**Markaziy Bank tomonidan “Butunjahon jamg‘arish kuni” doirasida  
maktab o‘quvchilari uchun tashkil etilayotgan “Moliyaviy matematika”  
onlayn testni o‘tkazish  
QOIDALARI**

**1. UMUMIY QOIDALAR**

1.1. Ushbu Qoidalar “Butunjahon jamg‘arish kuni” doirasida o‘tkazilayotgan “Moliyaviy matematika” onlayn testini (bundan buyon matnda Onlayn test deb yuritiladi) tashkil etish tartibini belgilaydi.

1.2. Onlayn test maktab o‘quvchilari e'tiborini moliyaviy savodxonlikka jalb etish maqsadida Markaziy Bank tomonidan intellektual bellashuvlarni tashkil etish orqali o‘tkaziladi.

1.3. Onlayn test joriyning yil 30 oktyabr kuni khiso.uz onlayn platformasida o‘tkaziladi.

1.4. Onlayn test moliyaviy matematika intellektual bellashuvida eng ko‘p ball to‘plagan ishtirokchilar orasidan g‘oliblarni aniqlaydi.

**2. ONLAYN TESTNING MAQSADI**

Onlayn testning maqsadi o‘quvchilarning moliyaviy savodxonlik, moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish va moliyaviy matematika sohalaridagi bilimni oshirib, ta'lim va tadqiqot yo‘nalishidagi ishlarini rag‘batlantirishdan iborat. Buning uchun quyidagi masalalar yechiladi:

– umumta'lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida moliyaviy matematikaga oid bilimlarni targ‘ib etish;

– umumta'lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida moliyaviy matematika ko‘nikmalarini hosil qilish va ularni ommalashtirish.

**3. ONLAYN TEST TASHKILOTCHILARI**

Onlayn test tashkilotchilari:

– O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki – Moliyaviy savodxonlikni oshirish va bank mutaxassislarini qayta tayyorlash departamenti;

– khiso.uz veb-sayti platformasi orqali Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro onlayn-olimpiada maktabi.

**4. ONLAYN TEST ISHTIROKCHILARI**

Onlayn test umumta'lim muassasalari o‘quvchilari uchun o‘tkaziladi.

## **5. ONLAYN TESTNI O‘TKAZISH TARTIBI**

Ishtirokchilarni ro‘yxatga olish Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro onlayn-olimpiada maktabi veb-sayti orqali ([www.khiso.uz](http://www.khiso.uz)) joriy yilning **20 oktyabridan 30 oktyabriga** qadar amalga oshiriladi.

Onlayn test joriy yilning 30 oktyabr kuni tanlovning rasmiy saytida bo‘lib o‘tadi.

Moliyaviy matematika bo‘yicha onlayn savollari 20 ta elektron testni o‘z ichiga oladi va ularga javob berish uchun 1 soat vaqt beriladi.

Onlayn test uchun maksimal baho 100 ballni tashkil etadi.

Onlayn test natijalariga ko‘ra har bir ishtirokchi maxsus elektron sertifikat bilan taqdirlanadi.

## **6. ONLAYN TESTNING TASHKILY QO‘MITASI**

Onlayn testning tashkiliy qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro onlayn-olimpiada maktabi xodimlaridan iborat bo‘lib, ular quyidagilarni amalga oshiradi:

- ishtirokchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun havolani e‘lon qilish;
- baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- onlayn test uchun savollar ishlab chiqish;
- onlayn test savollarini [khiso.uz](http://khiso.uz) elektron platformasiga joylashtirish;
- onlayn testni o‘tkazish tartibi va shartlariga rioya etilishi ustidan nazoratni ta‘minlash;

• Markaziy Bankning ijtimoiy kanallarida onlayn test natijalari bo‘yicha axborot berib borish.

Onlayn testning tashkiliy qo‘mitasi 4-bandda ko‘rsatilgan onlayn test shartlariga javob bermaydigan ishtirokchilarni ogohlantirishsiz musobaqadan chetlatish huquqiga ega.

## **7. TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN ROZILIK BERISH VA ISHTIROKCHILARDAN TALAB QILINADIGAN TASDIQLAR**

Onlayn test davomida ishtirokchilar haqida olingan ma‘lumotlar tashkilotchi va uchinchi shaxslar tomonidan axborot va hisobot berish maqsadida, shuningdek Onlayn testning bosh maqsadini amalga oshirishda (tanlov o‘tishi jarayonlarini e‘lon qilib borish maqsadida tanlov rasmiy veb-saytida, Markaziy bank ijtimoiy tarmoqlarida, moliyaviy savodxonlik veb-saytidagi matbuot relizlarida) moliyaviy savodxonlik va moliyaviy xizmatlar iste‘molchilarining huquqlarini himoya qilish masalalariga omma e‘tiborini jalb qilish uchun istalgan shaklda foydalanilishi

mumkin. Buning uchun ishtirokchiga qo‘shimcha haq to‘lanmaydi va undan ruxsat olinmaydi.

Onlayn testda ishtirok etish ishtirokchini onlayn test Qoidalarida belgilangan shartlarni o‘qib chiqqanligini va ularga rozi bo‘lishini anglatadi.

## **8. ARIZALARNI TAQDIM ETISH**

Onlayn testda ishtirok etmoqchi bo‘lganlar khiso.uz elektron platformasida ro‘yxatdan o‘tishlari kerak.

Qo‘shimcha savollar uchun quyidagi telefon raqamlariga murojaat qiling:  
+99871 212-73-56.

### **Ro‘yxatdan o‘tish uchun zarur ma’lumotlar**

F.I.Sh.	
Hudud, yashash manzili	
Telefon raqami	
O‘qish joyi (umumta’lim muassasasining raqami)	